

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2022



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

Maxsus son

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2022

MUNDARIJA

Nodir YADGAROV. Bo‘lajak chizmachilik o‘qituvchilarida kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda axborot texnologiyalarning o‘rni	8
Sanjar AZIMOV. Tasviriy san’atda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati	11
Dilshod MAMATOV. Muhandislik grafikasi fanini o‘qitishning innovatsion usullari (kompyuter grafikasi asosida)	14
Tolib SOBIROV, Qavmiddin OMONOV. Muhandislik grafikasini o‘qitishda me‘morchilik obidalaridagi geometrik yasashlarning tarbiyaviy ahamiyati	18
Arif KADIROV, Mehriniso QAHHOROVA. Yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishda milliy qadriyat va an‘analarning o‘rni	21
Shuhrat G‘ULOMOV. Tarixiy janrda O‘zbekiston tasviriy san’ati rivoji	24
Shodijon BAKAYEV, Sherozjon SHOKIROV. Badiiy bezash ishlarida ranglarni to‘g‘ri qo‘llash tartibi va ularning emotsional ta’siri	27
Qoryog‘di JUMAYEV. Kasb-hunar ta’limi va tarbiya berish jarayonida sharq rivoyatlaridan foydalanish metodlari	30
Muzafar AVLIYAKULOV. Tasviriy san’at o‘qituvchisi tashkilotchi, metodist va ijodkor	32
Гульнора ХАКИМОВА. Традиционная одежда узбекских женщин	34
Viloyat TUXSANOVA. Kashtachilik san’ati	37
Muhayyo AZIMOVA. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati turlari va ularning o‘ziga xos tomonlari	41
Sanjar AZIMOV, Maftuna SULAYMONOVA. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida tasviriy san’atning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish metodikasi	44
Shodijon BAKAYEV, J.B.NE‘MATOV. Interyerni sharqona qirma uslubda bezatish texnologiyasi	47
Oybek SHOMURODOV. O‘rta maktab tasviriy san’at fanida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	50
Aziza MUSINOVA. Amaliy bezak san’atida tasvir va kompozitsiyaning tutgan o‘rni	54
Akmal AMINOV. Autocad grafik dasturida 3d o‘lchamli obyekt nuqtalarining koordinatalarini kiritishning o‘ziga xos usullari	57
Gulshod OSTONOVA. Tasviriy san’at darslarida borliqni idrok etish hamda o‘quvchilarning fazoviy tasavvurlarini oshirish	61
Нозима КАДЫРОВА, Паризод РОЗИКОВА. Особенности национального платья жительниц Бухары в XIX веке как элемент изучения истории региона	64
Nigora IBATOVA. XIX-XX asr O‘zbekiston rassomlari ijodida manzara janri	67
Shahnoza IBADULLAYEVA. “Manzara janrida ijod qilgan rassomlar asaridan nusxa ko‘chirish” modulini o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati	71
Avaz SHUKUROV, Nargiza ASLANOVA. Kulolchilik - xalq amaliy bezak san’atining bir turi sifatida	76
Shodijon BAKAYEV, M.S.TO‘RAYEVA, D. USMONOV. Amaliy san’atda ranglardan foydalanish va ularning o‘ziga xos xususiyatlari	79
Nafisa AVLIYAKULOVA. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsiyatini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish	83
Sherali AVEZOV. Amaliy sanat tarixi va uning turlari	86
Muxiba SULAYMONOVA. Tasviriy san’atning shaxs ma’naviy kamolotida tutgan o‘rni	89
Alisher SHIRINOV. Tasviriy san’atni o‘qitishda borliqni idrok etish mashg‘ulotlari	91
Sadoqat SHODIYEVA. Arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san’atni qo‘llanilishi	94
Nozima ASLANOVA. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarning badiiy va axborotli matnlar mazmunini anglash va uni izohlash malakalarini rivojlantirish	97
Mohinur JALOLOVA. Diniy binolarda bezak san’ati	100
Maxbuba KARIMOVA. Xalq hunarmandchiligi darslarida amaliy bezak san’ati mashg‘ulotlarini o‘rgatish metodikasi	103
Jo‘rabek YARASHEV, Maftunabonu AKRAMOVA. O‘rta ta’lim maktablarda musiqaning muammo va yechimlari	106
Журабек ЯРАШЕВ, Нодира ШАДМАНОВА. Вопросы музыкальной гармонии в наследии просветителей IX-XII веков и их гуманистическое значение для культуры молодого поколения	108
Jo‘rabek YARASHEV, Maxfuza KAMBAROVA. Zamonaviy pedagogikada kreativlik tushunchasi	112
Maxfuza KAMBAROVA. Umumta’lim maktablarida musiqa darslarining nazariy asoslari	117
Jo‘rabek YARASHEV, Munisa RIZOYEVA. Musiqa madaniyati darslarida stilizatsiya uslubini turli usullarda qo‘llashning mazmuni	120
Zarnigor ALAYEVA. Yoshlarni musiqa ta’limi orqali milliy istiqlol g‘oyalari ruhida tarbiyalash	122

Jo‘rabek YARASHEV

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti
san‘atshunoslik” kafedrasini mudiri,
dotsent, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD)

Maxfuza KAMBAROVA

Buxoro davlat universitetining Pedagogika
instituti
I bosqich magistri

ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA KREATIVLIK TUSHUNCHASI

Kreativlik talaba yoshlarning ma'lum bir sohadagi bilimdonligi va maqsad sari qilayotgan ijodkorligi bo'lib, bu bevosita ijodkor yoshlarni tarbiyalashdek muhim vazifani amalga oshiradi. Ijodkor shaxslarni rivojlantirish mamlakatning intellektual boyligi kafolati bo'lib, ijodkor shaxslarni tarbiyalash orqali yoshlarning divergent tavakkurini shakllantirish hozirgi kun pedagogikasining asosiy masalasidir.

Kalit so'zlar: *kreativ, intellektual, divergent, pedagogika, musiqa, konstitutsiya, genial, tafakkur, konvergent, integratsiya.*

Креативность – это познание и целенаправленное творчество учащихся в определенной области, непосредственно выполняющее такую важную задачу, как воспитание творческой молодежи. Развитие творческих людей является залогом интеллектуального богатства страны, а формирование дивергентного риска молодежи через воспитание творческих людей является ключевым вопросом современной педагогики.

Ключевые слова: *творческий, интеллектуальный, дивергентный, педагогика, музыка, конституция, гениальность, мышление, конвергентный, интеграция.*

Creativity is the knowledge and goal-oriented creativity of students in a particular field, which directly fulfills such an important task as the education of creative youth. The development of creative people is a guarantee of the intellectual wealth of the country, and the formation of divergent risk of young people through the education of creative people is a key issue in today's pedagogy.

Key words: *creative, intellectual, divergent, pedagogy, music, constitution, genius, thinking, convergent, integration.*

Kirish. Hozirda O‘zbekiston ta’lim tizimi dunyo ta’lim tizimi makoniga kirib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida juda muhim va mas’uliyatli vazifani yuqori malakali, raqobatbardosh, yuksak ma’naviyatga ega kadrlarni yetishtirishda davlat va jamiyat bir tan, bir jon bo‘lib amalga oshirishni talab etadi, shundagina ko‘zlangan ulug‘ maqsadga erishish mumkin bo‘ladi.

Ta’limning davlat nazoratida bo‘lishi tabiiy holdir. O‘zbekiston Konstitusiyasida har bir fuqaro ta’lim olish huquqiga ega deb belgilangan. Qabul qilingan davlat qonunlari oldingilaridan farqli ravishda xalq ta’limining yangi qoidalari, tamoyillari, ular asosida ta’lim-tarbiyaning mazmuni, shakl va usullari bu sohada erishilgan ilg‘or tajribalar asosida ishlab chiqildi, davlat ta’lim standartlari yaratildi hamda ular asosida ta’lim jarayoni amalga oshirilmoqda.

“XXI asr – intellektual asr”, ya’ni “Aql-zakovat asri” yoki “Axborotlashgan jamiyat sari asri”ning yuzaga kelishlarining barchasi kishilik jamiyati taraqqiyotiga mos, unda yashovchi ilg‘or kreativ insonlar, ya’ni kreativ shaxs faoliyati natijasida yuzaga kelishining guvohi bo‘lamiz.

Axborotlashtirilgan asrda axborotlar oqimi muntazam ravishda ortib boradi, ularga mos muammo hamda ularning yechimlari ham tez o‘zgarib boradi. Demak, ushbu jamiyatga mos va unda faol qatnashuvchi bo‘laman degan xodim, a‘zo, shaxs, ya’ni mutaxassis ham ilmiy axborotlarni izlash, to‘plash va undan foydalanish uchun olingan axborotlarni tizimlarga ajratish, muammoga xos fikr va texnikaviy (texnologik) yechimlarning optimal variantlarini tanlash usullarini bilishlari zarur.

Asosiy qism. Inson o‘zini qobiliyatlari orqali namoyon qiladi. Bu qobiliyatlar uning shaxsiy xususiyatlari bo‘lib, unga muayyan turdagi faoliyat bilan samarali shug‘ullanishga imkon beradi. Qobiliyatlar muayyan tabiiy iste’dodlar negizida vujudga keladi. Iste’dod – bu asab tizimining tug‘ma, anatomik-fiziologik xususiyatlari bo‘lib, qobiliyatlar rivojlanishining individual-tabiiy asosini tashkil etadi.

Odatda qobiliyatning quyidagi turlari farqlanadi: intellektual (aqliy, fikrlashga oid), badiiy, tashkilotchilik, kommunikativ (muloqotga oid) va hokazo. Yuqori darajada rivojlangan turli qobiliyatlarning yig‘indisi *iste’dodlilik* deyiladi. *Qobiliyat rivojlanishining muayyan darajalari bo‘lgan talant va geniallik* haqida ham fikr yuritish mumkin. *Talant* – yetuk qobiliyatlar bo‘lib, bunda inson faoliyati mukammalligi,

originalligi bilan ajralib turadi. *Geniallik* – qobiliyat va talant rivojining oliy darajasidir. Geniallik sifat jihatidan yangi, takrorlanmas ijod namunalari yaratish, ijodning avval ma'lum bo'lmagan yo'llarini topish bilan bog'liqdir [5, 6].

Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi.

Kreativlik so'zi (inglizcha "create" – yaratuvchanlik, ijodkorlik) so'zidan olingan bo'lib, inson shaxsining ijodkorlikka bo'lgan qobiliyati, ijodkorlik iste'dod darajasi, individning an'anaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo'lgan, printsiplari yangi g'oyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o'zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil faktori sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlaridir [7, 42].

Amerikalik olim D.Veksler "Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi va zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi" [6, 15] - deb ta'rif beradi. Kreativ shaxs bo'lish, bizning misolimizda esa, kreativ o'quvchi bo'lish – bugungi dunyoda afzalliklarga ega bo'lish, masalan, boshqa o'quvchilar ichida ajralib turish, boshqalarga qaraganda qiziq suhbatdosh bo'lish, hayotda uchraydigan qiyinchiliklardan nooddiy tarzda chiqib ketish demakdir.

Har bir o'quvchidagi kreativlikning rivojlanishi individual hisoblanadi. Kreativlik rivojlanishining sistemalilik faktori ta'limning ijtimoiylashuvi bo'lib hisoblanadi. Kreativlikning dastlabki ko'rinishlari har bir insonga xos. Biroq u o'sayotgan, tarbiyalanayotgan, ta'lim olayotgan muhitdagi turli xil ta'qiqalar, sotsial shablonlar ijodiy faoliyatning blokirovka (yopilish)siga olib keladi. O'quvchida kreativlikning rivojlanishi uchun psixologik bosimlardan ozod qilib, ijobiy turtki berish lozim.

Inson tafakkurini o'rganish psixologiyada asosiy e'tibor qaratiladigan muammolardan biri bo'lib, u juda murakkab jarayon hisoblanib, shu sababdan doimiy ravishda ilmiy-tadqiqotlarni olib borishni talab etadi.

Tafakkur tushunchalar va tasavvurlarda amalga oshiriladi hamda tafakkur qilinishining asosiy shakli – fikr va mulohaza yuritishdir. "Tafakkur – jamiyat rivojining mahsulidir, lekin, tafakkurning individual rivojlanishi, uning o'ziga xosligi, organizmning o'ziga xosligiga, bosh miyaning holati va funksional imkoniyatlariga bog'liqdir. Tafakkurning individual o'ziga xosligi - tafakkurning kengligi, mustaqil fikrlash, tafakkur tezligi, shoshma-shosharlik va tanqidiy fikrlash bo'lib, mutaxassislar bularni aqlning sifatlariga tegishli deb qarashadi" [5, 12].

Fikrlash kengligi – xususiy tomonlarni nazardan qochirmasdan, muammoni to'liq qamrab olish qobiliyatidir. Tafakkurning teranligi – murakkab savollarning mohiyatigacha kira olish qobiliyatida ifodalanadi. Teran tafakkur qilishga qarama-qarshi bo'lgan sifat - yuzaki fikrlash bo'lib, inson mayda narsalarga e'tibor qaratib, asosiy qismni ko'rmaydi. Mustaqil tafakkur yuritish insonning yangi muammolarni qo'ya olishi va boshqalarning yordamiga murojaat qilmasdan ularni yechish yo'llarini topish ko'nikmasiga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Shoshma-shosharlikda aql yuritish - inson qo'yilgan savolga atroflicha o'ylamasdan, qaysidir tomonni ushlab olib, yechimni berishga shoshadi, yetarlicha o'ylanmagan javobni va mulohazani aytadi. Sekinlik bilan fikr yuritish faoliyati esa nerv tizimi tipiga, ya'ni uni sekin harakatlanishiga bog'liq bo'lishi mumkin.

Ayzenkaning ta'rifiga ko'ra: "Aqliy jarayonlarning tezligi yoki tafakkur tezligi – insonlar o'rtasidagi intellektual farqlarning fundamental bazisidir" [5, 18].

Bizningcha, tafakkurning tezligi – insonning yangi holatga yoki muammoga tez va to'g'ri baho bera olishi, moslashishi, o'ylashi va to'g'ri yechimni qisqa vaqt davomida qabul qila olish qobiliyatidir.

Yuqorida keltirilganlarni umumlashtirib, zamonaviy psixologiyada turli asoslarga ko'ra tafakkurning quyidagi bir nechta shartli klassifikatsiyasining ko'rinishlari qabul qilingan va ommalashganligini aytishimiz mumkin, ular: rivojlanish genezisi; yechiladigan masalalar tavsifi; yoyilish darajasi; yangiligi va originallik darajasi; tafakkur vositalari; tafakkur funksiyalari va boshqalar.

Masala yechimiga tafakkur ko'p tomonli amallar orqali, ya'ni taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiya va umumlashtirish yordamida keldi. Tafakkurning individual o'ziga xosligiga mutaxassislar aqlning quyidagi sifatlarini: tafakkurning kengligi, mustaqil tafakkur qila olish, tafakkurning tezligi, shoshqaloqlik va aqlning tanqidiyligini tegishli deb bilishadi. Tafakkur barcha insonlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlar orqali amalga oshadi, lekin shu bilan birga tafakkurda insonning yosh jihatlari va individual o'ziga xosligi namoyon bo'ladi.

Tafakkur — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir [8, 35].

Tafakkur - inson miyasining alohida funksiyasi. Uning nerv fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro munosabatidan iborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon bo'ladi.

Nutq aloqasi jarayonida insonning hissiy mushohada doirasi kengayibgina qolmay, orttirilgan tajriba boshqa kishilarga ham beriladi. Inson o'zining tafakkuri, nutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida o'zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning haqiqiylikni aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bivosita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqea va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rish imkoniyatiga ega.

Tafakkur ko'pgina fan sohalari (falsafa, mantiq, jamiyatshunoslik, pedagogika, fiziologiya, kibernetika, biologiya)ning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Psixologiyada tafakkur voqelikni umumlashtirish darajasiga, muammoni yechish vositasi xususiyatiga, holatlarning inson uchun yangiligi, shaxsning faollik ko'rsatish darajasiga ko'ra bir necha turlarga (ko'rgazmali harakat, ko'rgazmali obrazli, amaliy, nazariy, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, mavhum, ijodiy va h.k.) ajratib tadqiq qilinadi. Ijtimoiy hayotda, ta'lim jarayoni va ishlab chiqarishda odamlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo'ladi.

Jamoada tanqidiy qarash, o'zini o'zi tanqid qilish, baholash, tekshirish, o'zini o'zi tekshirish, nazorat qilish, guruhiy mulohaza yuritishdan iborat tafakkur sifatleri vujudga keladi. Insonning inson tomonidan idrok qilinishi ham tafakkur bilan uzviy aloqadadir. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtirolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Psixologiya tafakkurning filogenetik (insoniyat paydo bo'lishi davri), ontogenetik (kishi umri davomida) bilishga oid tarixiy jihatlarini ham o'rganadi. Hozirgi zamon fanining juda ko'p murakkab masalalari tafakkurdagi mantiqiy jarayonlarni yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etmoqda.

Tafakkur tezligi – insonning individual o'ziga xosligiga bog'liq bo'lgano'zgaruvchan kattalik. Kimdir aytilayotgan fikrni tezda ilg'ab oladi, kimgadir buning uchun vaqt kerak bo'ladi.

Tafakkur tezligini ko'rsatgichini yaxshilash mumkinmi? Albatta ha! Inson miyasining plastigliligi, uning yangi shart-sharoitga tezda moslashishi, rivojlanishi va mukammallashuvi turli darajadagi murakkab masalalarni tez yecha olishni o'rganish imkoniyatini beradi. Lekin tezlik – majmuaviy tushunchadir [8, 35].

Natijaning tezligi nimaga bog'liq? Xotiraga (balki siz shunga o'xshash masalani va uni yechilishini esga olarsiz), mantiqqa, diqqatni bir joyga to'plash ko'nikmasiga, detallarga va faktlarga e'tiborni qarashga, original tafakkurga, kreativ yondashuvga bog'liq bo'lishi mumkin. Shunday qilib, sizning oldingizda "Tafakkur tezligini qanday rivojlantirish mumkin?" degan savol turadigan bo'lsa, biz uning uchun bir nechta kerakli maslahatlarni tavsiya etishimiz mumkin.

Kun tartibiga amal qiling. To'g'ri ovqatlanish, sog'lom turmush tarzi, oqilona kun tartibi bevosita kundalik turmushimizda biz yechadigan turli masalalarning tezligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Turg'un charchoqlik simptomiga ega inson hech qachon o'zining tafakkur imkoniyatini ko'rsata olmaydi. Tizimni izlang va algoritmi eslab qoling. Ko'pchilik hollarda birinchi qarashda mutlaqo yangi masala siz qachondir uchratgan masalaga juda o'xshash bo'ladi. Agar sizning ongingizda uni yechish algoritmi saqlangan bo'lsa, u holda muammoni hal etish siz uchun murakkablik tug'dirmaydi. Odatda, "tez fikrlaydigan" odamlar – yaxshi xotiraga ega va analogiyani qo'ya oladigan, yangi holatlarga mavjud tajribasini qo'llay oladigan insonlardir.

Muhokamalar va natijalar. Yuqorida aytib o'tganimizdek tafakkur tezligi har kimda turlicha, qo'yilgan muammoni yechish uchun sizdan talay vaqt talab qiladigan holatda, tezda yechadigan inson bilan musoboqalashish har doim ham real natija bermaydi. Lekin sizda, o'z tafakkur tezligingizni oshirish imkoniyati mavjud. Agar siz tafakkuringizni rivojlantirish va aniq kognitiv funksiyalar bilan shug'ullanadigan bo'lsangiz, u holda natija uzoq kuttirmaydi.

Tafakkur tezligi samaradorlik ko'rsatgichi bo'lishi mumkin emas, chunki, noto'g'ri ma'lumotni to'g'ri ma'lumot ekanligini dastlab ishonch hosil qilmasdan turib uni tezda qayta ishlash mumkin.

Shu sababdan tafakkur tezligining boshqa tavsiflarini (teranligi, tafakkur sifati) baholamay turib, uning yordam qilishi haqida gapirib bo'lmaydi. Sizning tafakkuringiz nafaqat tez bo'lishi, balki samarali bo'lishiga harakat qiling. Samarali tafakkur – aniq, pozitiv va ishchi tafakkurdir.

Amerikalik psixolog olim Djoy Pol Gilford o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida kreativlik va intellektni birinchi marotaba taqqosladi. U intellekt strukturasi modelini yaratishda tafakkurni **konvergent** va **divergent** turiga ajratdi.

Konvergent tafakkur - (lotincha *convergere*– “bir yo’ldan”) tafakkur formasi bo’lib, muammoning bir qancha yechimlaridan faqat yagona to’g’risini tanlashdir. Konvergent tafakkur asosida intellekt yotadi, shuning uchun intellektual tafakkur deb ham ataladi [6, 17].

Divergent tafakkur – (lotincha *divergere* – “bo’linish”) ijodiy tafakkur metodlaridan biri bo’lib, berilgan bir muammoning bir qancha yechimlarini topish, shuning bilan bir qatorda, divergent tafakkur “bir vaqtning o’zida turli yo’nalishlarda izlanish, ya’ni bir muammoga bir nechta to’g’ri javoblar borligini va original ijodiy g’oyalarning tug’ilishiga xizmat qiladi. Divergent tafakkurning asosida kreativlik yotadi.

Djoy Gilford umumiy qobiliyatlar sohasini tadqiq qilish natijalarini sistemlashtirib, “intellekt strukturasi modelini”, ya’ni “ISM”ni taklif etadi. Uning modeli asosida, “reaksiya” “operatsiya”, “mazmun”, “natija” yotadi.

Reaksiya – materialga nisbatan qanday operatsiyani qo’llash natijasi. Gilfordning modelidagi barcha faktorlar mustaqil bo’lib, u uch o’lchamli, ba’zida esa nomlarning klassifikatsion shkalalari turli xil o’lchamlarda ham uchrab turadi.

Operatsiya deganda Gilford sinovdan o’tkazilayotgan obyektning qobiliyatini, ya’ni quyidagi psixik jarayonlarni tushunadi: tushuncha (dunyoqarash sifatida), xotira, divergent unumdorlik (har xil yo’nalishlarda fikrlash), konvergent unumdorlik (faqat yagona to’g’ri javobga olib keluvchi fikr), baholash.

Mazmun esa axborot yoki materialning operatsiya olib borilayotgan tabiati bilan aniqlanadi: tasvir, simvollar (harflar, raqamlar), semantika (so’zlar), xulq.

Natija – sinovdan o’tkazilayotgan obyekt tomonidan qayta ishlanayotgan axborotlar joy olgan formadir: element, munosabatlar, sistemalar, o’zgaruvchanlikning turlari va xulosalari.

Gilford kreativlikni divergent tafakkurning unumdorligi bilan bog’laydi. Pedagogik manbalarda siz uning “Kreativlik – divergent tafakkur jarayonidir” degan fikrini uchratishingiz mumkin. Dastlab, Gilford o’z kreativlik strukturasi divergent tafakkurdan tashqari o’zgaruvchanlik qobiliyati, yechimning aniqligi va boshqa intellektual parametrlarni birlashtirdi. Shuningek, u kreativlik va intellekt o’rtasida o’zaro uzviy aloqa borligini isbotladi. Biroq, Gilford o’z tajribalarida yuqori intellektuallilarning test yechish davomida ijodkorlik xulqini har doim ham ko’rsatmasligini, kreativ past intellektualli bo’lmasligini aniqladi. Shunday ekan, divergent tafakkur kreativ jarayonning barcha xususiyatlarini aks ettirmaydi. Umuman olganda, kreativlik – bu yangi, original g’oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar topishdir. Kreativ tafakkur esa revolutsion tafakkur bo’lib, u konstruktiv xarakterni ifodalaydi.

O’quvchilarining to’laqonli o’z ongi, aql-zakovati, zukkoligi bilan bilim olishga va ijod qilishga qiziquvchi o’quvchi-yoshlarning kreativlik xususiyatini rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni ishlab chiqish va dars jarayonida unga amal qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Xulosa o’rnida ta’kidlab o’tish lozimki mazkur kreativ yondashish jarayonida yechimi topilmagan muammolardan xalos bo’lish, yangi kashfiyot va texnologiyalar ixtiro qilish va ijodkorona yondashuv imkoniyatini yaratadi. Bu esa o’z navbatida dunyoga yangicha nazar tashlash, yuritimiz istiqboli, farovonligi va rivojiga misli ko’rilmagan hissa qo’shishga xizmat qiladi. Mamlakatimiz nomini butun jahonda yanada balandroq jaranglashiga zamin yaratadi. Ammo bunday ko’rsatgichga erishish ulkan mehnat va mashaqqatni talab qiladi. Oldimzdagi muammolarga yangicha nazar tashlash va ularni hal etish sur’atini jadallashtirish darkor. Jahon pedagogikasi va ta’lim psixologiyasida bugungi kun oldida turgan muhim masalalardan biri nafaqat bilimli, balki ijodiy tafakkur sohibi bo’lgan shaxsni shakllantirish yo’l, usul va vositalarini izlash asosiy masalalardan hisoblanadi.

Ushbu masalani ijobiy hal etishda ta’lim tizimi o’rni kelganda an’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiruvchi, o’quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi interfaol metodlar bilan boyitish lozim bo’ladi. Shuningdek, dars jarayonining oqilona tashkil etilishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligining muttasil rag’batlantirilib turilishi, o’quv materialini kichik-kichik bo’laklarga bo’lib, ularning mazmunini ochishda turli xil zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu kabi fundamental masalalar ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi va ijodkor shaxsni tarbiyalashda o’ziga xos o’rintutadi.

Adabiyotlar

1. Sayfullayev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2012. 388-b.
2. Sharipov Sh.S. O’quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti:

Dis. avtoref. ... ped. fan. dok. – Toshkent: O‘zDJTU, 2011. -46 b.

3. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2009. -303 b.

4. Zunnunov A., Tolipov O‘. Milliy qadriyatlar asosida o‘quvchi shaxsini shakllantirish. – T.: “Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati”, 2006. – 94 b.

5. Usmonboyeva M., To‘rayev A. Kreativ pedagogika. – Toshkent: TDPU, 2016. – 144 b.

6. Drapeau P. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

7. Nishonova S. Sharq Uyg‘onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi. Ped. fan. Dokt.diss. -T., 1998 –B.42

8. Abdullayev X.A., Xasanov U.U. Estetika. – Toshkent: O‘zDSI bosmaxonasi, 2008. – B. 35